UDK: 008:327(575)

NAVOIY VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

R.N. Tolibov

Maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan islohotlar, amalga oshirilgan ishlar hamda yechimini kutayotgan muammolar Navoiy viloyati misolida o‘rganilgan. Navoiy viloyatida turizm sohasining yangilanib borish jarayoni, istiqbollari va rivojlanishining konseptual yo‘nalishlari masalalari yoritilgan. Turizm sohasini rivojlantirishga oid takliflar berilib, ularni tatbiq etishning nazariy masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *turizm, turoperator, meros, mehmonxona, servis, daromad, yo‘l ko‘rsatkich, ziyoratgoh, marshrut, turfirma*.

В статье на примере Навоийской области изучены реформы, направленные на развитие сферы туризма в Узбекистане за последние годы, проведенные работы и проблемы, ожидающие решения. Освещаются вопросы процесса обновления, перспективы и концептуальные направления развития индустрии туризма в Навоийской области. Даны предложения по развитию сферы туризма, рассмотрены теоретические вопросы их реализации.

Ключевые слова: *туризм, туроператор, наследие, гостиница, сервис, доход, путеводитель, святыня, маршрут, турфирма.*

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgan vaziyatda har bir davlat o‘z iqtisodiyotini barqarorlashtirish va uning istiqbolida soha ko‘lamini kengaytirish yo‘llarini qidirmoqda. Xususan, turizm sohasi ayni damda jahon iqtisodiy maydonida tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sohadir. Birlashgan millatlar tashkiloti huzuridagi Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda sayohat qiluvchi turistlar soni 1,4 milliardni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 6 foizga ko‘paygan. 2019-yilda esa sayyohlar soni 1,5 milliardga yetgan. 2019-yilda jahon yalpi ichki mahsulotida turizm va sayyohlikning umumiy hissasi qariyb 9,170 mlrd. dollarni tashkil qilgan Yuqoridagi raqamlar odamlarning yildan-yilga sayohatga bo‘lgan qiziqishi, talablarining ortib borayotganiga yaqqol misoldir. Umuman, turizm iqtisodiy foyda keltirishdan tashqari, aholining dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, dunyoning turli davlatlari va mintaqalari vakillari o‘rtasida yaqin aloqalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi [1].

O‘zbekiston o‘zining boy tarixi, betakror me’moriy obidalari va qadimiy o‘ziga xos qadriyatlariga ega davlatdir. Respublika iqtisodida turizm sohasi jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab davlatlari bilan mazkur sohadagi hamkorlik, soha rivoji uchun davlat tomonidan qaratilayotgan e’tibor va madaniyatimizni keng ko‘lamda targ‘ib etish ishlari jahonning ko‘plab davlatlari sayyohlarining yurtimizga bo‘lgan qiziqishini orttirmoqda. Bu borada prezident Sh.Mirziyoyev mintaqada turizm jozibadorligini oshirish uchun transport kommunikatsiyalari va infratuzilmasini hamkorlikda rivojlantirish zarurligini, Jahon turizm tashkiloti bilan birgalikda Markaziy Osiyoda turizm xablarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ayni shu maqsadga xizmat qilishini alohida ta’kidlab o‘tdi [2. B. 351].

2017-yilning to‘qqiz oyi yakuniga ko‘ra, qariyb 1 million 800 ming sayyoh yurtimizga kelgan. Bu 2016-yilning mos davriga nisbatan 17 foiz ko‘pdir. Mamlakatimizda sayyohlik xizmatlari eksporti ham 17 foiz ko‘payib, 1 milliard 86 million dollarni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich tashkil etilgan va yangi tashkil etilayotgan turoperatorlar hissasi orqali yanada oshishi mumkin [3. B. 174].

So‘nggi yillarda respublikada turizm sohasining bir qator yangi yo‘nalishlarida istiqbolli

loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, yurtimizning boy tabiati va imkoniyatlaridan foydalangan holda sayyohlar uchun tog‘li hududlarda alpinizm, otda, tuyada, velosipedda sayohat qilish, off-road sayohatlari, baliq ovi, rafting, xeliski, geoturizm, ta’lim turizmi, tibbiy turizm kabi yangi sayyohlik yo‘nalishlari ommalashtirildi. Sh.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishni ta’minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo‘lmoqda. Farmonda belgilab berilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Ayni paytda O‘zbekistonda turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida turizm sohasi subyektlariga sezilarli soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa yangiliklar taqdim qilindi [4. B. 104].

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda turizm sanoatini rivojlantirish maqsadida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Chunonchi, soha tarmog‘ini standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot (ISO) talablariga mos keluvchi yangi 2 ta davlat standarti ishlab chiqildi va ro‘yxatdan o‘tkazildi. Bulardan tashqari, prezidentimizning tegishli qarori bilan hududlarda turizm sohasining boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari, Xiva va Shahrisabz shaharlari hokimlarining turizm masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimi joriy etildi.

2023-yil O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tashabbusi bilan “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2023-yil 1-may sanasidan boshlab, 2024-yil 1-iyuliga qadar tajriba tariqasida turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan 5 nafar va undan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutuvchi turpaketlar (joylashtirish, avtomobil yoki temiryo‘l transporti, ekskursiya va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar qamrab olingan) bo‘yicha chet ellik hamkorlarga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdoridagi mablag‘lar respublika byudjetidan subsidiya sifatida qaytariladi. Shuningdek, 2026-yil 1-mayiga qadar mahalliy turoperatorlar, turizm sohasida joylashtirish xizmatlarini ko‘rsatuvchi yoki avtomobil transportida yo‘lovchilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga o‘z faoliyatida yo‘lovchilarni tashishda foydalaniladigan va haydovchi bilan birga o‘n va o‘ndan ortiq o‘rindiqqa ega bo‘lgan, ishlab chiqarilganiga 5 yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalarini O‘zbekiston hududiga olib kirishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini foizlar hisoblanmagan va ularning to‘lanishini ta’minlash talab etilmagan holda 12 oy muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi beriladi [5].

Asrlar mobaynida O‘zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo’li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o‘ynadi [6]. Birgina Samarqand esa “Buyuk Ipak yo‘lining yuragi” deb nom oldi. O‘tgan davr mobaynida davlatimiz rahbari topshiriqlari asosida Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash, yangi sayyohlik yo‘nalishlari tashkil etish hamda hududlarning turizm salohiyatini keng targ‘ibot qilishga qaratilgan dasturlar qabul qilindi. Jumladan, Buxoro va Samarqand shaharlarida sayyohlar uchun kun-u tun faoliyat ko‘rsatuvchi, har birining hududi 10 gektardan iborat “Qadimiy Buxoro” va “Samarqand siti” turizm hududlarini barpo etish bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan. 2021-yil holatiga ko`ra, O`zbekistonda 1200 dan ortiq mehmonxona va mehmonxonalar mavjud bo`lib, ularda jami 50.000dan ortiq xona mavjud. Bularga hashamatli mehmonxonalardan tortib to byudjetli mehmonxonalargacha bo’lgan turar joy variantlari kiradi [7. B. 195].

Respublikamiz prezidenti tomonidan O‘zbekistonning tabiat in’om etgan to‘rt fasl imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mutasaddi qo‘mita, vazirlik va idoralar rahbarlariga sayyohlikni mavsumiy emas, balki yil davomida daromad manbaiga aylantirish, xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash, sayyohlarni jalb qilishda yangicha usul va yondashuvlardan samarali foydalanish, ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar loyihalarini tayyorlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, yurtimizga turistlarni jalb qilish uchun quyidagi qulayliklar yaratilishi kerak:

– dunyoning nafaqat rivojlangan davlatlari, balki musulmon davlatlariga aviaqatnovlarini yo‘lga qo‘yish, xususan, Indoneziya va Malayziyaga parvozlar sonini oshirish;

– aviaqatnovlar sifatini yaxshilash va chipta narxlarini arzonlashtirish;

– turizm sohasidagi raqamli marketingning turizmni rivojlantirishdagi o‘rni juda katta. Raqamli marketing texnologiyalari orqali turizmni rivojlantirishni rejalashtirish va maqsadlarni aniqlash, reklama va mijozlar bilan aloqada bo‘lish, mijozlarni rag‘batlantirish jarayonida yordam berishini inobatga olib, uni takomillashtirish [8. B. 394];

– yurtimizning boy tarixini va me’moriy obidalarini boshqa davlatlarga targ‘ibotini kengaytirish, bu borada mamlakatimiz elchixonalari faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilarning aksariyat qismi Samarqand va Buxoro kabi qadimiy shaharlarga sayohat qilmoqda. Biroq Shahrisabz, Xiva hamda Termiz shaharlariga tashriflar nisbatan sustligicha qolmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning ayrim hududlarida internetdan foydalanishda aloqa ko‘ngildagidek emasligi, tarixiy obidalar hududida bepul Wi-Fi xizmati yo‘lga qo‘yilmagani bois muammolar mavjud. Zero, bugungi texnologiyalar taraqqiyoti davrida turizmni rivojlantirishda biror mamlakat haqidagi taassurotlarini bo‘lishishda internetning ahamiyati katta ekani sir emas. Bu yo‘nalishda davlat va xususiy sektor hamkorligi yaxshi natija beradi, deb o‘ylaymiz.

Hozirda Navoiy viloyatida turistik potensial ancha yuqorilab bormoqda. Chunonchi, viloyatga 2018-yilda 30 ta xorijiy davlatdan 27,1 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrifi kuzatilgan bo‘lsa, 2019-yilda 53 ta xorijiy davlatdan 57,4 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifi kuzatildi. Shuningdek, 2021-yil davomida 9 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifi kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, mahalliy sayyohlar soni 2019-yilning 12 oyi mobaynida 2404 mingdan ortib, 2018-yil (1895 ming nafar) ga nisbatan 27 % ga ko‘paygan. 2021-yil davomida 522 ming nafar mahalliy sayyoh tashrifi kuzatildi [9]. Shuningdek, 2021-yilda Ichki turizmni rivojlantirish dasturiga muvofiq, viloyatda mavjud jami 77 ta korxona-tashkilotlarning 55 ming nafar ishchi-xodimlari hamda 307 ta mahalla fuqaro yig‘inlaridan 169 ming nafar fuqaro ichki turizmga jalb qilindi, umumiy hisobda 250 ming nafarga yaqin kishining sayohati tashkil etildi.

Bugungi kunda viloyatda jami sayyohlarni joylashtirish obyektlari soni 158 taga yetkazildi, ulardagi xonalar soni 2012 ta, o‘rinlar soni 4792 tani tashkil etmoqda. Shundan: 37 tasi mehmonxona, 88 tasi oilaviy mehmon uylari, 24 tasi xostel, 5 tasi dam olish maskanlari, 4 tasi o‘tovli lagerlardir.

Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, 2016-yilda mehmon uylari soni 1 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilning mart oyiga qadar 88 taga yetkazilib, 120 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Birgina 2021-yil o‘zida 45 ta yangi oilaviy mehmon uyi hamda 7 ta xostel faoliyati yo‘lga qo‘yilib, rejaga nisbatan 110 foizlik natija qayd etildi. “2020–2021-yillarga mo‘ljallangan hududiy investitsiya dasturi” doirasida 2021-yilda 300 ming dollarlik xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish orqali 1 ta loyiha ishga tushirildi, bu orqali investitsiya o‘zlashtirilib, yillik reja 100 % ga bajarildi va 15 ta yangi ish o‘rni tashkil etildi. Xususan, Navoiy viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil davomida umumiy qiymati 12 mlrd. so‘mlik jami 7 ta loyiha amalga oshirildi. Natijada 7 ta yangi mehmonxona (154 ta xona, 235 ta o‘rin) ishga tushirilib, jami 68 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qaroriga asosan mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar ro‘yxati shakllantirildi, xususan, Navoiy viloyatidan Xatirchi (7 ta mahalla), Nurota (8 ta mahalla) va Qiziltepa (5 ta mahalla) tumanlaridan 20 ta mahalla mazkur ro‘yxatga kiritildi. Unga ko‘ra, ushbu hududlarda tadbirkorlik subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini – 1 foiz, ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i miqdorlarini mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilandi [9].

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yilda qabul qilingan qaror va farmonlariga (PF-5978, PF-6002, PQ-4755) ko‘ra, viloyatda turizm sohasidagi 131 ta tadbirkorlik subyekti jami 1,6 mlrd. so‘m, shundan 998 mln. so‘m yer solig‘i, 502 mln. so‘m mol-mulk solig‘idan hamda 166 mln. so‘m ijtimoiy soliqlardan ozod qilindi.

Viloyatda 2018-yilda turmarshrutlar soni 5 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yil holatiga 35 tani tashkil etgan, 2020-yilga nisbatan o‘sish ko‘rsatkichi 135% ga yetgan, 5 ta ekoturizm, 7 ta ziyorat turizmi hamda 3 ta agroturizmga moslashgan yangi marshrutlar ishlab chiqildi [9]. Ichki va tashqi turizmni tashkil qilish maqsadida 25 ta turkompaniyalar faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lsa, turoperatorlar tomonidan sayyohlarga xizmat ko‘rsatishda jami 67 ta transport vositalari xizmat qilmoqda.

Turizm ifratuzilmasini yaxshilash maqsadida ajratilgan mablag‘ hisobidan ichki turizm va ziyorat turizmi obyektlari hamda yondosh infratuzilmalarni rivojlantirish manzilli dasturi ishlab chiqildi. Jumladan, dastur doirasida Sarmishsoy darasi, To‘dako‘l suv ombori, Mavlono Orif Deggaroniy majmuasiga olib boruvchi yo‘l qismi to‘liq ta’mirlanmoqda. Sentob turizm qishlog‘ini tashkil etish, hududni turizm obyektiga aylantirish maqsadida yo‘l infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish obyektlari to‘liq ta’mirlanmoqda. Bundan tashqari, “Buyuk Ipak yo‘li”ning “Zarafshon–Qoraqum” qismida joylashgan “Qosim-Shayx”, “Mirsaid Bahrom”, “Raboti-Malik”, “Sardoba”, “Mavlono Orif Deggaroniy” madaniy meros obyektlarini YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha ishlar jadallashtirilmoqda.

Viloyatning turizm salohiyatini yanada keng targ‘ib qilish maqsadida, 2021-yilda 70 ga yaqin targ‘ibot materiallari, jumladan turistik xaritalar, turistik buklet va broshyuralar tayyorlanib, turizm axborot markazlari, mehmonxonalar, turoperatorlar, respublika darajasidagi ko‘rgazma va forumlarda chet ellik mehmonlarga tarqatilishi ta’minlanib, 100ga yaqin xorijiy ommaviy axborot vositalari va blogerlar orqali turli targ‘ibot ishlari olib borilgan. 2022-yilda mahalliy sayyohlar sayohatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shimcha ravishda “Keksalar oyligi” tizimi orqali nuroniylarning xavfsizligini to‘liq ta’minlagan holda imtiyozli sayohatlarni tashkil qilish, nomavsumiy turizm davrida “Ichki turizm oyligi”, “Ichki turizm haftaligi” hamda “Ichki turizm kunlari” tashkil etish, oilaviy sayohatlarni nazarda tutuvchi yillik asosiy ta’til hisobidan besh ish kunidan kam bo‘lmagan “oilaviy sayohat ta’tili” tizimi rivojlantirilmoqda [9].

Navoiy viloyatida hozirgi kunda amal qilayotgan turistik marshrutlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning asosiy qismi Samarqand va Buxorodan boshlanadi. Demak, viloyatga keladigan turistlarni shu shaharlardagi turistik firmalar shakllantiradi va mos ravishda daromad ham ularning hisobiga o‘tkaziladi. Bu holatni quyidagi ma’lumotlar orqali ham anglash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Navoiy viloyatida amaldagi marshrutlar va ularning muddatlari

T/p	Trustik marshrutlarning nomlari	Qancha muddatga mo‘ljallanganligi	Tunash joyi
1	Buxoro – Sarmishsoy – Nurota (Chashma)	1 kunlik marshrut	Buxoro shahri: mehmonxonada.
2	Buxoro – Sarmishsoy – Nurota (Chashma) – Aydarko‘l	2 kunlik marshrut	Buxoro shahri: mehmonxonada. Navoiy viloyati: o‘tov.
3	Samarqand – Sarmishsoy – Nurota (Chashma)	1 kunlik marshrut	Samarqand shahri: mehmonxonada.
4	Samarqand – Sarmishsoy – Nurota (Chashma) – Aydarko‘l	2 kunlik marshrut	Samarqand shahri: mehmonxona. Navoiy viloyati: o‘tov.
5	Forish – Sentob – Nurota – Sarmishsoy – Samarqand	5 kunlik marshrut	Jizzax viloyati: mehmonxona, palatka. Navoiy viloyati: o‘tov. milliy mehmonxona, Samarqand shahri: mehmonxona.

Yangi ishlab chiqilgan marshrutlar			
1	Samaqand – Forish – Aydar – Nurota – Buxoro	2 kunlik marshrut	Jizzax viloyati: mehmonxona, palatka. Navoiy viloyati: o‘tov.
2	Samarqand – Karmana – Sarmish – Buxoro	2 kunlik marshrut	Navoiy viloyati: o‘tov, milliy mehmonxona, Samarqand shahri: mehmonxona.
3	Buxoro – Nurota – Langar-Sangijumon – Sarmish – Samarqand	3 kunlik marshrut	Buxoro shahri: mehmonxonada. Navoiy viloyati: milliy mehmonxona. Samarqand shahri: mehmonxona.

Ko‘rinib turibdiki, hozirgi paytda viloyatga keladigan turistlarning marshrutlari boshqa viloyatlardan boshlanadi, qisman Navoiy viloyatida bo‘ladilar. Masalan, mavjud 5 ta marshrutdan faqat uchta holatda Navoiy viloyati hududida tunaydilar. Qolgan paytda faqat bir yoki ikki marta bu yerda ovqatlanadilar, xolos. Bu bilan xizmat turlarini va turizmdan naqd pul (valyuta) tushumini ko‘paytirish juda murakkab. Ta’kidlash joizki, yangi ishlab chiqilgan marshrutlar ham boshlanishi boshqa viloyatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Bizningcha, barcha turistik marshrutlarni Navoiy viloyatidan boshlab ishlab chiqish lozim. Chunki keng faoliyat ko‘rsatishni boshlagan “Navoiy” EIIZda band bo‘lgan xorijiy va mamlakatimiz fuqarolari, unga tashrif buyuruvchilar turistik marshrutlarini Navoiy shahridan boshlashni taqozo qiladi. Bu – turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat. Faqat undan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Bunda ekologik turizmga qaratilgan infratuzilma alohida diqqatga sazovordir. Bu borada Konimex va Nurota tumanlarining Aydarko‘l bilan tutash hududlarida bir qancha qo‘nalg‘alar tashkil qilinganini qayd etish mumkin. Ular o‘z mohiyatidan kelib chiqqan holda hududning o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini ifodalaydi. Chunki bu yerda qurilgan yurtlar, ulov sifatida foydalaniladigan tuyalar, yashashga mo‘ljallangan joylarning milliyligi kabilar ushbu hududning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligidan dalolat berib turadi. Quyida ekologik yo‘nalishdagi turistlar uchun mavjud yashash obyektlari haqida ma’lumot keltirilgan (2-jadval) [9].

2-jadval

Ekologik yo‘nalishdagi turistlar uchun mavjud yashash obyektlari

T/r	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar nomi	Turistlar dam oladigan obyektlar	Yo‘nalishi
1	“Aydar-1” sayyohlik bazasi	12 ta o‘tov	Ekstremal va ekoturizm
2	“Aydar-2” sayyohlik bazasi	8 ta o‘tov	Ekstremal va ekoturizm
3	“KAMEL” sayyohlik bazasi	17 ta o‘tov	Ekstremal va ekoturizm
	Jami	37 ta o‘tov	

Ekologik turizmni rivojlantirish uchun unga ta’sir qiluvchi omillar tizimini ishlab chiqish lozimdir. Tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqlamoqdaki, viloyatda ekologik turizmni rivojlantirish uchun bir qancha omillar ta’sir qilar ekan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

– ekoturistik resurslarning mavjudligi;

– ekologik turizmni tashkil qilish darajasi;

– ekoturizmni rivojlantirishga turli manbalardan yo‘naltiriladigan (davlat, jamoaviy, xususiy, xorijiy) mablag‘larning mavjudligi;

– ekologik turizmni rivojlantirish uchun tegishli infratuzilmaning yaratilishi;

– mahalliy aholining o‘ziga xos madaniy qadriyatlari va yashash tarzining asl holda saqlanib qolganligi;

– ekologik turizm bozorining rivojlanish darajasi.

Hozirda Navoiy viloyatining turistik marshrutlari va manzillari asosida yangi “Sayyohlik xarita”si yaratildi. Buning natijasida ekoturistlarni tartib bilan harakat qilishi yo‘lga qo‘yilib, turoperatorlarning manzillarga yetkazish bo‘yicha tashkiliy xarajatlari 2016-yilda 2015-yilga nisbatan 23,46 foizga kamayishiga erishildi.

Yaratilgan marshrutlar Sarmishsoy darasi-

ning tog‘li hududlaridan o‘tganligi sababli sportning alpinizm turini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, Nurota yassi tekisliklaridan iborat “Buxoro – Nuroto – Langar – Sangijmon – Sarmish – Samarqand” marshrutlarida velosport turini rivojlantirish mumkinligi haqida ham o‘ylab ko‘rish kerak. Binobarin, bu marshrutlar o‘tgan joylar tasviri 3D uskunasi orqali yangi innovatsion texnologiyalar asosida internet saytlariga joylashtirililsa, turistlarga obyektga bormasdan turib u haqda tasavvurga ega bo‘lgan holda tanlash imkoniyatini beradi.

Konimex va Nurota tumanlarining Aydarko‘l bilan tutash hududlarida qurilgan bir qancha yurtlar, ulov sifatida foydalanishga mo‘ljallangan tuyalarda sayr qilish imkoniyati milliy turizmni rivojlantirish bilan birga doimiy pul tushumini ta’minlaydi. Taklif etilayotgan marshrutlar bo‘ylab turizmni rivojlantirish o‘z navbatida Navoiy viloyati hokimligining 2017-yil 12-oktyabrdagi “Aholi xonadonlarida dam oluvchilar va sayyohlar uchun zamonaviy sharoitlar asosida “mehmon uylari”ni tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlari”ning bajarilishi uchun imkon beradi. Navoiy shahrining o‘zida turistlarga ko‘rsatiladigan barcha xizmat turlari, standart darajadagi 5 yulduzli, 4 yulduzli va 3 yulduzli mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari va boshqa xizmat turlari ham juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Viloyatda mehmonxonalarning umumiy soni 180 ta bo‘lib, nomerlar soni 2458 tani va o‘rinlar soni 5847 tani tashil etadi. Bundan tashqari yaqin yillar ichida viloyatda 29 ta mehmonxona (nomerlar soni1 253 ta, o‘rinlar soni 2 678 ta), 91 ta mehmon uylari (nomerlar soni 292 ta, o‘rinlar soni 859 ta), 32 ta hostellar (nomerlar soni 421 ta, o‘rinlar soni 1052 ta) va12 dan ortiq dam olish maskanlari (554 o‘rinli) foydalanishga topshirilgan [10. B. 139].

Navoiy viloyati shimoli-g‘arbda Qizilqum sahrosi, janubi-sharqda Nurota tog‘ tizmalari hamda Zarafshon daryosining o‘rta qismida joylashganligi aholiga dehqonchilik bilan shug‘ullanish imkonini bermoqda. Hududda nafaqat Zarafshon daryosi, balki Aydarko‘l, Sho‘rko‘l, To‘dako‘l singari ko‘plab yirik suv havzalari viloyat tabiatining yanada rang-barang bo‘lishiga hissa qo‘shmoqda. Navoiy yosh va navqiron viloyat bo‘lsa-da, uning insoniyat tamaddunіga katta hissa qo‘shgan qadimiy va betakror tarixi bor. Xususan, Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba, Qosim Shayx Azizon xonaqohi va Nurotaning noyob me’moriy obidalari bebaho madaniy merosdir [9].

Navoiy viloyatining Uchquduq shahrida Tosh o‘rmon, Sarmishsoy darasidagi ibtidoiy qoyatosh suratlari, hozirgi Navbahor tumani Uchtut, Ijand, Sangbursoy qishloqlarida o‘tkazilgan arxeologik izlanishlarning natijasida bu yerlardan tosh asri ovchilarining mehnat qurollari va ibtidoiy qoyatosh suratlari topilgan hamda YUNESKOning tarixiy yodgorliklar ro‘yxatiga kiritilgani bugungi kunda hech kimga sir emas. Bugunda Navoiy viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlarning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari quyidagicha:

1. Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyuruvchilarning maqsadi (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya) – noyob sharq me’moriy yodgorliklari va tarixi, tub aholining madaniyati va turmush tarzi bilan tanishish.

2. Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyodan tashrif buyuruvchilarning maqsadi (Yaponiya, Xitoy, Koreya) – Ipak yo‘li rivojlangan davrdagi eng qadimiy davlatlardan biri bilan tanishish.

3. Aholisining aksariyat qismi islom diniga e’tiqod qiluvchi Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari sayyohlarining maqsadi (Turkiya, Eron, Indoneziya, Malayziya, arab mamlakatlari) – islom madaniyati yodgorliklari, musulmon urf-odatlari va an’analari bilan tanishish.

4. Rossiya va MDH davlatlari sayyohlarining maqsadi – xalqimizning tarixi, an’analari, o‘ziga xos turmush tarzi, madaniyati va milliy oshxonasi bilan tanishish.

Fikrimizcha, viloyatda turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq hamma imkoniyatlar bor. Turistik firmalarda iste’molchilar bilan kommunikatsion jarayonlarni takomillashtirish – ularni tegishli ma’lumotlar bilan ta’minlash va ko‘rsatilgan xizmatlar sifatidan qoniqish darajasini, mavjud kamchiliklarni aniqlash pirovard natijada mijozlarning turoperatorlar to‘g‘risidagi fikrlarini ijobiy tomonga o‘zgartirish, potensial turistlar auditoriyasini kengaytirishga, xizmatlar hajmini ko‘paytirishga olib kelishi shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. *Tulyakov E*. Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda // “Dunyo” axborot agentligi. 2022-yil 10-may. [Internet manba]. URL: https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ ichki_ va_ziiorat_turizmni_ rivozhlantirish imkoniyatlari_kengaymoqda-bYY (Murojaat etilgan sana: 08.01.2023)

2. *Mirziyoyev Sh.M*. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 351 b.

3. *Нуриддинов Э.З.* Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Тошкент: Чулпан, 2002. – 216 с.

4. *Селиманова С.М., Турсунова С. Р*. Обеспечение безопасности туризма органами внутренних дел Республики Узбекистан. // Academic research in educational sciences, 2021. – Vol. 2. Issue 2. – С. 1102–1107.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/uz/docs/-6456786 (Murojaat etilgan sana: 28.01.23)

6. O‘zbekiston turizm salohiyati. [Internet manba]. URL: http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html (Murojaat etilgan sana: 15.01.23)

7. *Zulfiqorov U*. Mamlakatimizda turizm sohasining salohiyati (raqamli ko`rsatkichlar asosida). // Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2023. – Vol. 2. – No19. – Pp.187–200.

8. *Xaqqulov S.* O‘zbekistonda raqamli marketing salohiyati va uning Turkiya mamlakati tajribasi misolida turizmga ta’siri // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2023. – Vol. 2. – No 19. – Pp. 391–397.

9. Navoiy shahar “Turizm” boshqarmasi milliy kompaniyasi hisobotlari. (2017-2021yy.)

10. Allaberganova G., Tursunova, G. Turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxonalar faoliyatini tashkil etish // Евразийский журнал академических исследований, 2023. 3 (5). Part 4. – B.137–140.

CONCEPTUAL DIRECTIONS OF TOURISM DEVELOPMENT IN NAVOI REGION

Ruzikul N. Tolibov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 89-96.

[1]Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, 210100, str. Ibn Sina, 45 (Uzbekistan). E-mail: navgospi@inbox.ru

Keywords: *tourism, tour operator, heritage, hotel, service, income, guidebook, shrine, route, travel agency.*

The ultimate goal of large-scale reforms implemented in all areas is to further develop the economy of our country and raise the welfare of our people’s lives.

New prospects for tourism are opening up in our country, and comprehensive projects are being implemented in different directions. In particular, in the following years, new tourist destinations such as mountaineering, horseback riding, camels, cycling, off-road trips, fishing, rfting, Heliski, geotourism, educational tourism, medical tourism are gaining popularity.

Today, the tourist potential in the Navoi region is getting much higher. The Chunonchi region was visited by 27.1 thousand foreign tourists from 30 foreign countries in 2018, while 57.4 thousand foreign tourists from 53 foreign countries visited in 2019. Also during 2021, there were visits by 9.0 thousand foreign tourists.

If we analyze the tourist routes operating in the Navoi region, then the main part of them begins in Samarkand and Bukhara. So, tourists who come to the region are formed by tourist firms in these cities, and, accordingly, their income is also transferred at their expense.

Today, a new “tourist map” has been created on the basis of tourist routes and addresses of Navoi region. This resulted in an orderly movement of ecotourists, resulting in a 23.46% reduction in organizational costs for delivery of tour operators to destinations in 2016 compared to 2015.

Thanks to the funds allocated in order to improve tourism exclusion, a targeted program for the development of domestic tourism and visiting tourism facilities and adjacent infrastructures was developed. Including as part of the program, the Sarmyshsoy gorge, Todakul reservoir, the part of the road leading to the Mavlono Orif Deggoroniy complex are being completely renovated. The establishment of the Sentob tourism village in order to turn the territory into a tourism object, the road infrastructure, service facilities are being completely renovated. In addition, the "Kasim – Sheikh", "Mirsaid Bahrom", "Raboti-Mali", "Sardoba", "Mavlono Orif Deggaroni" located in the Zarafshan-Karakum section of the" Great Silk Road " are accelerating the work on the inclusion of cultural heritage sites in the Unesco list of world cultural heritage monuments.

In our opinion, there are all the possibilities associated with the development of tourism in the region. Consequently, it is necessary to explore the culture and rich national heritage and values of the region, once again to focus on the tourism sector. Naturally, in tourist firms engaged in tourism, improving communication processes with consumers – providing them with relevant information and determining the level of satisfaction with the quality of the services provided, as well as existing shortcomings and, ultimately, changing customers ' opinions about turbochargers for the better, creating an opportunity to expand the audience of potential tourists and increase the volume of services.

References:

1. Tulyakov, E. (2022) *Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda* [Opportunities for the development of domestic and pilgrimage tourism are expanding]. [Online]. URL: URL: https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ ichki_ va_ziiorat_turizmni_ rivozhlantirish imkoniyatlari_kengaymoqda-bYY (Date of Access: 08.01.2023)

2. Mirziyoyev, Sh.M. (2019) *Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi* [The work of a people with a great intention will be great, their life will be bright and their future will be prosperous]. Vol. 3. Tashkent: O'zbekiston.

3. Nuriddinov, E.Z. (2002). *Mezhdunarodnoe sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy* [International cooperation of the Republic of Uzbekistan with European countries]. Tashkent: Chulpan.

4. Selimanova, S.M., Tursunova, S.R. (2021) Obespechenie bezopasnosti turizma organami vnutrennih del Respubliki Uzbekistan [Ensuring the safety of tourism by the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan]. *Academic research in educational sciences*. Vol. 2. Issue 2. Pp.1102-1107.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ['Decision of the President of the Republic of Uzbekistan on additional measures to rapidly develop the tourism potential of the Republic and further increase the number of local and foreign tourists']. [Online]. URL: https://lex.uz/uz/docs/-6456786 (Date of Access: 28.01.23).

6.O'zbekiston turizm salohiyati [Tourism potential of Uzbekistan]. [Online]. URL: http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html (Date of Access: 15.01..23)

7. Zulfiqorov, U. (2023) Mamlakatimizda turizm sohasining salohiyati (raqamli ko'rsatkichlar asosida). [The potential of tourism in our country (based on numerical indicators)]. *Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences*. Vol. 2. No 19. Pp.187-200.

8. Khakkulov, S. (2023) O'zbekistonda raqamli marketing salohiyati va uning Turkiya mamlakati tajribasi misolida turizmga ta'siri [The potential of digital marketing in Uzbekistan and its impact on tourism as an example of the experience of the country of Turkey]. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*. Vol. 2. No 19. Pp. 391-397.

9. Navoiy shahar "Turizm" boshqarmasi milliy kompaniyasi hisobotlari [Reports of the national company of Navoi city "Tourism" department. (2017-2021)].

10. Allaberganova, G., Tursunova, G. (2023) Turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxonalar faoliyatini tashkil etish [Organization of hotel activities in the development of the tourism sector]. *Evrazijskij jurnal akademicheskih issledovanij*. 3(5). Part 4. Pp. 137-140.

Muallif haqida ma'lumot:

TOLIBOV Ruzikul Nasimovich – tarix fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti. E-mail: sanobka88@mail.ru.